KOMPETENTLI YONDOSHUV ASOSIDA TALABALARNING MALAKAVIY AMALIYOTI TASHKIL ETISH MUAMMO VA YECHIMLAR

Alinbekova Arzu Abdurashidovna - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Uzluksiz talim tizimini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda talim moddiy-tehnik bazasini mustahkamlashdagi chora-tadbirlar tizimi, Respublikamizda pedagog-kadrlarni tayyorlash va pedagogik ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish masalasi, jamiyatni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagog-kadrlarni yuqori kasbiy bilim, malaka va ko'nikma bilan qurollantirish, ularning kasbiy kompetentligini oshirishga doir vazifalar belgilangan.

N.A.Muslimov iliy tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlikka quyidagicha izoh berilgan: "Kompetentlik – bu shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llanilishi bilan ifodalanadi".

Hozirda Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyaklarini shakillantirish faqatgina nazariya bilab bog'liq bo'lib qolmoqda Zero kasbiy kompetentlik amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi. Buning uchun talabalarning mutahasislik fanlaridan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini malakaviy amaliyotga tadbiq qilishlari va o'z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari uhun kompetentli yondoshuv asosida mutaxasislik fanlari va malakaviy amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yish va ilmiy jihatdan asoslash maqsadga muofiq deb topdik. Demak, kompetentli yondoshuv asosida mutaxasislik fanlari va malakaviy amaliyot integratsiyasini tashkil etish amaliyot mazmunini ochib bersh uchun zarur.

Bu uchun malakaviy amaliyot mazmunini kengaytirish undagi muhim tushunchalarni ajratib olib o'zlashtirish uchun quyidagi jarayonlarni faollashtirish lozim deb belgiladik:

- Kompetentli yondoshuv asosida mutaxasislik fanlari va malakaviy amaliyot integratsiyasini tashkil etish, holatini aniqlashga sub'ektiv yondashish extimolini pasaytirish;

- malakaviy amaliyotning muhim mo'ammolarini ochib berishda ahamiyatga ega bo'lgan jihatlariga talabalar etiborini qaratish;

- doimiy ravishda talabalar ijodiy tashabbuskorligi va malakaviy amaliyot faoliyati mustaqilligini kengaytirish, mazkur integratsiyani kompetentli yondoshuv asosida tashkil etib, samarali yo‘lga qo‘yish uchun didaktik vosita turlarini qo‘llab, undan foydalanish bo‘yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- o‘qituvchi pedagoglar va talabalar o‘rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish;

- hozirgi zamon talablari asosida talabalarda kasbiy kompetentsiyaviy sifatlarini, ilmiy dunyoqarashini mazkur integratsiya vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalarida kompetentli yondoshuv asosida amalga oshiriladigan mutaxasislik fanlari va malakaviy amaliyot integratsiyasini tashkil etishni ta'minlash talabalarning bilimlarini tizimlashtirishga, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga, talimning quyi bosqichlarida egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Ushbu jarayon talabalarning atrof, inson, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi va boyitadi. Ular asosida fanlardan egallangan bilimlarni umumlashtirish vazifasi samarali hal etiladi. Talabalar mutahasislik fanlarni o‘zlashtirish jarayonida asosiy tushunchalar va atamalar yordamida o‘z bilimlarini rivojlantiradi.

Kopetentli yondoshuv asosida mutaxasislik fanlari va malakaviy amaliyot integratsiyani tashkil etishning funksiyasi zamonaviy bilimlar asosini tashkil etuvchi tushunchalarni o‘zlashtirish va rivojlantirish asosida mutahasislik fanlar tizimida malakaviy amaliyot jarayoni quyidagi vazifatar asosida takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz:

- Kompetentlikning mazmunan boyligi va umumiyligi, bilish shakli sifatida talabalarning dunyoqarashini mazkur integratsiya yordamida shakllantirish ularning bilimlarni egallash jarayoni samaradorligini oshirish;

- malakaviy amaliyot integratsiyasining kompetentsiyaviy funksiyasi, o‘quvchining rivojlanishi ijtimoiy talablariga javob bera oladigan malakaviy amaliyotni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlarini belgilash;

- mazkur integratsiya bilim va tushunchalarni idrok etish imkoniyatlarini egallashga yordam beradi. Mutahasislik fanlar mazmunini imkoniyat darajasida o‘zlashtirish uchun uning barcha jihatlarini fan dasturi va darslikda ifodalash lozim. Bu integratsiyani ta'minlash natijasida o‘quv materiallarining yaxlitligiga erishish;

- mazkur integratsiyani ta'minlash natijasida malakaviy amaliyot jarayonida zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyagarni qo‘llash uchun qulay shartsharoitlar yaratish.

Mazkur integratsiya talabalarning turli sohalardan olgan bilimlarini sintez qila olish va kasbiy kompetentliklarini rivojlantiruvchi imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu integratsiya umumlashtirilgan shaklda idrok eta olish ko'nikmalarini xosil qilishni, talabalarga egallagan bilimlarini umumlashtirish, yagona umumiylikni idrok etish, hodisalarni baholash mahoratini rivojlantirishni ko'zda tutadi;

- mazkur integratsiya talabalarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday dunyo qarash moddiy, ijtimoiy borliqdagi voqea-hodisalarni o'rganish va baholashda metodologik yo'nalish sifatida ishtirok etadi;

- mazkur integratsiya malakaviy amaliyotda tizimlilikni ta'minlashga yordam beradi. Talabalar malakaviy amalyotda bilimlarni egallashning metodologik vazifalarini mazkur integratsiyani tushungan holdagina bajara oladi hamda kasbiy kompetentsiyalarini namoyon qiladi ;

- mazkur integratsiya talabalarni mustaqil bilim olish, ijodkorlik va tadbirkorlikka undaydi. Bu pedagogik mahoratni oshirishga va amaliyotlarni tashkil etishning turli vazifalarini hal etishda pedagogik jamoaning birligini ta'minlashga imkon beradi.

Uquv fanlarining umumiy tuzilishi, elementlari amaliyotda mazkur integratsiyani amalga oshirishning quyidagi ob'ektiv asoslarini yaratadi:

- egallanadigan bilim, tushuncha va dalillar;
- qonunlar va nazariyalar;
- talaba dunyoqarashini shakllantiruvchi tushunchalar;
- tarixiy muammolar va ilmning rivojlanish yo'li;
- fanning metodologik asoslari va metodlari;
- belgilab qo'yilgan maxsus ko'nikma va malakalar;

Muntazam tarzda tatbiq qilinadigan mazkur integratsiya turli sohaga oid bilimlarni egallash, ulardan doimiy foydalanish talabalar egallagan ko'nikma, malakalarini mustahkamlashga ham yordam beradi. Ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishi hamda bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Mazkur integratsiya bilimlarni egallash, malakaviy amaliyotni tashkil etishning didaktik imkoniyatlaridan biridir. U talabalarning kompetentsiyaviy qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantirib borish asosi sifatida belgilab olingan amaliyot metodlariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tug'risida»gi PF-4947-son Farmoni «Xalqso'zi», 2017 yil 8 fevral

2. N.A.Muslimov, N.S.Gaipova. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishda kasb ta'limi mazmunini loyihalashtirishning ahamiyati. Oliy va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida mustaqil ta'lim: muammo va echimlar.